

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

1
2024



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 788 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-fevralda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyea Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarning roli va ahamiyati.....	10
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Yashil iqtisodiyotga o'tishda konseptual, ilmiy, innovatsion yondashuvning zarurati	16
Gulnora Abdurahmonova	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish muammolari va uni bartaraf etish yo'llari	22
S. R. Topildiyev	
Milliy strategik maqsadlar: ekologik va bojxona boshqaruvi mexanizmlarining maqbul kombinatsiyasi	28
Muratova Shohista Nimatullayevna	
Green Economy in Tourism in Uzbekistan.....	32
Alieva Makhbuba Toychievna	
Инновационные подходы в сельском туризме: "Зеленые маршруты"	36
Голышева Елена Вячеславовна	
Mamlakatimizda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari	42
Vaxabov Abduraxim Vasikovich, Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
To'qimachilik sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirish omillari.....	47
A.Yu. Mardanov	
Turizmni qayta jonlantirish strategiyasini ishlab chiqishda turizmni rejalashtirishning istiqbollari.....	52
A'zamov Saidakbarxon Avazxon o'g'li	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishi asosida barqaror rivojlanishga erishish	57
Abdullayev Elyorbek Odiljon o'g'li	
Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni	62
Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li	
Turistik hududlarning barqaror rivojlanishini baholash metodologiyasida integral baholash ko'rsatkichlarini aniqlashning nazariy jihatlar.....	66
Asraqulov Abduraxmon Sultonovich	
Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda "yashil" iqtisodiyot va uning ayrim masalalari.....	70
Axunova Shoxistaxon Nomonjanovna, Sultonova Gulbaxor Shoxnazimovna	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.....	74
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Mintaqa iqtisodiyotida agrar soha samaradorligini oshirishning ahamiyati.....	78
Butanova Dilnoza Rustamovna	
Global krizislar va ularning turizm iqtisodiyotiga ta'siri.....	83
Hallakova Barnoxon bahodirjonovna	
Agroturizm faoliyati rivojlanishining xorijiy tajribalari va ularda faoliyatni rivojlantirish modellarining qo'llanilishi.....	95
Husanboyev Sadafbek Yorqinjon o'g'li	
Yashil iqtisodiyotni kreditlashda banklarning o'rni.....	101
Ibragimova Sevara Muxamedjan qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini baholash masalalari.....	104
Isayev Jakhongir Muzaffarovich	
Iqtisodiyotni islomiy moliya tamoyillari asosida moliyalashtirish amaliyotini joriy etish istiqbollari	110
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi.....	113
Mahamatova Maftuna	
Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	



Islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish usullari.....	124
Said Po'latov Maxamedovich	
Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry	128
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li	
Dorivor o'simliklar yetishtirishning dunyo mamlakatlari iqtisodiyotidagi o'rni va xalqaro bozor savdosida prognozlar.....	135
To'xtabayev Jamshid Sharofiddinovich, Maftuna Ermatova Arslonbek qizi	
O'zbekistonga turistlar tashrifini ko'paytirishda raqamli texnologiyalarning o'rni	142
Toshmurod Kulmanov	
Agrobiznesni moliyaviy quvvatlash va rivojlanish istiqbollari	147
Tursunova Dilnavo Islomovna	
Oziq-ovqat bozorini qandolat mahsulotlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish.....	150
Azlarova Munira Muxammad-Amin qizi	
Yoshlar turizmini rivojlantirish holati va uni takomillashtirish yo'llari.....	159
Allayor Norboyev Ismoilovich	
Biologik aktivlarni baholashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish.....	162
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
Agrosanoat ishlab chiqarishida innovatsion jarayonlarni tadqiq qilishga uslubiy yondashuvlari.....	168
Dusmatov Begmuhammad Olimjonovich	
Suv resurslaridan samarali foydalanishda suv solig'ining ahamiyatini oshirish	174
Ikramov Nuriddin Kamolitdinovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsiya va innovatsion faoliyat bilan bog'liq tushunchalarining nazariy masalalari	179
Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Temur Olimovich Mamayunusov	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – Agglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanishni harakatlantiruvchi omili sifatida	185
Raximbayev Akmal Azatboyevich	
Korxonalarini boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari	190
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
Globalashuv sharoitida turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	195
Salimov Dilshodbek Davronovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	199
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich	
Oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'llari	203
Nilufar Umarova	
O'zbekistonda transport xizmatlari ko'rsatilishi tahlili	207
Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li	
Agrar sektorga jalb qilingan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga ta'sirining tahlili	213
Yangiboyev Sirojiddin Jo'ramurodovich	
Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarda auditning xalqaro standartlarini qo'llash xususiyatlari	220
Meliyev Isroil Ismoilovich	
Raqamli bank xizmatlarini yanada takomillashtirish: muammolar va yechimlar	227
Melikov Otabek Maxmadiminovich	
Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalining tutgan o'rni.....	232
Abdikarimov Islombek Ibragimovich	
Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish modellariga oid zamonaviy tajribalar.....	237
Avulchayeva Feruza Djurakuziyevna	
Задачи предмета «русского языка» на современном этапе	243
Адилова Солияхон	



Tijorat tashkilotlarining investitsiya faoliyati	247
Farhod Mahmudovich Tirkashyev, Asomiddinov Husan Asomiddin o'g'li	
Korrelyatsion-regression tahlil orqali turizm xizmatlari samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	252
Gapparov Azim Qayumovich	
O'zbekistonda monetizatsiya darajasi va uni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri.....	258
Isayev Atabek Djurabayevich	
Prospects for the Development of Bond Circulation in the Capital Market.....	266
Jurabek Sobirov	
Ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili.....	270
Kuldashev Sherzod Alimardonovich	
Iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va ularning barqaror iqtisodiy o'sishdagi roli	276
Mamadiyeva Dilrom Ravshon qizi	
Surxondaryo viloyatlarning marketing salohiyatini shakllantirish holati tahlili	280
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
Improving Internal Control System	287
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
Oliy ta'lim xizmatlarini targ'ib qilishda OTMLar veb-saytlari samaradorligini oshirish.....	291
Musayev Bekjon Shukurillayevich	
Korxonaning narx-navo tizimi va narx siyosatini tahlil qilish	298
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhkomovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasini moliyalashtirish istiqbollari.....	302
Muxammadiyev Ramz Zoirjon o'g'li	
Xizmatlar ko'rsatish subyektlarida biznes-modellarining raqamli transformatsiyalashuv konsepsiyalari.....	306
N. B. Yahyoxonov	
Mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kredit tashkilotlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	311
Nazarova Muslima Nazarovna	
Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlarini	317
Nurmatov Mirzaakbar Mirzaaliyevich	
Biznesni yuritishda korxonalararo integratsion jarayonlarni rivojlantirish masalalari.....	322
Olimova Nodira Xamrakovna	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari: tahlil va istiqbollar	329
Oppoqxonov Nurmuhammadxon Po'latxon o'g'li	
O'zbekistonda davlat korxonalari transformatsiyasini jadallashtirish yo'nalishlari.....	333
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Aholining turmush darajasini oshirish sharoitida mehnat bozori transformatsiyasining dinamikasi	338
Rahimboyev Muxtorbek Ikrom o'g'li	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	341
Raxmanov Mexridin Sindarovich	
Aholi moliyaviy savodxonligiga investitsiya kiritishning ahamiyati.....	345
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda valyuta siyosatini samarali tashkil etish.....	350
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	
Sharq va G'arb tamaddunida gender qarashlar	355
Samandarova Gulxayo Abduraim qizi	
Imkoniyati cheklanganlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish istiqbollari	359
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
To'qimachilik korxonalarining inqirozga qarshi boshqaruvida davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati	363
Todjimamatova Mashxura Erkinovna	
Mintaqalarning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ularning barqaror rivojlanish bilan bog'liqligi	367
Toshboyev Muzaffar Muxtorovich	



Перспективы развития сферы услуг в Узбекистане.....	373
Tsoy Marina Petrovna, Li Marina Rudolfova, Romashkin Roman Anatolyevich	
Opportunities for Bicycle Tourism in Zomin, Bulungur and Bakhmal Districts.....	379
Urozaliev Elyor Shuxrat ogli, Xujamov Bobur bahodir ogli, Saydullayev Abbosjon Murodovich	
Pul-kredit siyosati va moliyaviy inqiroz: uslubiyot va saboqlar	384
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Korxonalarda barqaror rivojlanishni tatbiq etish istiqbollari.....	391
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Jumayeva Guzal Sherxon qizi	
Telekommunikatsiya korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	396
Xusanov Ulugbek Nishanovich	
Milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini kengaytirish imkoniyatlari.....	402
Xuseynova Feruzabonu Mamadaliyevna	
O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	405
Yo'ldosheva Dilnoza G'ayrat qizi	
Необходимость соблюдения этических норм в профессиональной деятельности бухгалтеров	408
Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна	
Mintaqalarda kichik innovatsion korxonalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	412
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Axmadjanov Ilyosbek Ilxomjon o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishini nazariy masalalari.....	416
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich, Abduraxmonov Sherali Sharifjonovich	
Пути повышения прозрачности бюджета Республики Узбекистан.....	420
Адашов Гайрат Рустамович	
Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi	424
Axmediyeva Aliya Toxtarovna	
Тенденции и факторы развития пищевой промышленности в Узбекистане	432
Б. А. Хакимов	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции.....	438
Бабаева Гузаль Яшиновна	
"Sirdaryo" va "Sirdaryo-Farm" erkin iqtisodiy zonasidagi xorxonalari erishgan yutuqlari, berilgan imtiyozlar va yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida	444
Davlayev G'olib Ashurovich	
Milliy iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalarning tahlili	447
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
Ishlab chiqarish tafovutining Markaziy Bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	452
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
O'zbekistonda innovatsion jozibadorlik asosida oliy talim xizmatlarini rivojlantirish.....	457
Jonuzokov M. K.	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasidan foydalanish.....	461
Ismailov Allayor Rashidovich	
Особенности формирования ценовой стратегии на рынке плодоовощной продукции.....	465
Исроилов Абдурашид Абдурахманович	
Iqtisodiyotni globalashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish	471
Kalandarova Nargiza Narimanovna	
Проблемы регулирования и защиты инвесторов в развитии электронной коммерции и пути их решения	475
Кенжебаева Гульфуза Рахматиллаевна	
Сущность, цели и задачи определение уровня финансовой устойчивости предприятия в современных условиях	478
Киличев А. А.	
Sug'urta tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish	485
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	



Классификация институциональных факторов, определяющих предпринимательскую активность в Узбекистане.....	490
Курпаяниди Константин Иванович	
Ho'jalik yurituvchi subyektlarning kredit va qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi tahlilini takomillashtirish.....	497
Mahmudova Go'zal Samadjon qizi	
Muqimiy ijodiDA milliy uyg'onish va iqtisodiy, falsafiy qarashlar	502
Muxlisa Muxitdinova	
Совершенствование управления портфелем залогов для обеспечения финансовой устойчивости: инсайты и рекомендации для Узбекистана	505
Наимов Шахрух	
Определение специфических особенностей и факторов влияющие на процесс внедрения международных требований и стандартов в коммерческих банков Республики Узбекистан.....	509
Хайдаров Зохиρ Шаривович , Каражанова Гулноза Толлиевна, Хайдари Фидои Зохиρ Зода	
Inson kapitalida mujassam bo'lgan fazilatlar, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rni va roli	514
Mamayunus Qarshibayevich Pardayev, Sevara Abdinazarovna Babanazarova, Mexrangiz Olimovna Mamayunusova	
Развитие рыночных отношений и усиление их влияния на рост объёмных и качественных показателей культурного туризма.....	521
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Основные направления цифровой трансформации в банковском секторе.....	525
Рахимова Гавхар Ойбековна	
O'zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank kreditlarining roli	530
Saidova Subhinigor Azizovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag'allikni qisqartirishning innovatsion yo'llari	535
Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Nazarov Asqar Anvar o'g'li	
Yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari	541
Umirov Xurshid Islomovich	
Korxonalar va tashkilotlarni modernizatsiya qilish jarayonlari.....	545
Fayziyeva Dilafruz Shuxratovna	
"Авеста" – исторический источник экономической мысли в Древней Средней Азии	549
Хакимов Назар Хакимович, Садиков Анвар Каримович	
Приоритетные направления развития теории формирования финансовой политики предприятия	555
Хамдамов С. Ф.	
Innovatsion rivojlanish sharoitida inson resurslarini strategik boshqarish.....	562
Xasanova Nafisa Shavkatovna	
Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish.....	566
Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi	
Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar.....	572
Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari	578
Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni.....	583
Toyrova Amina Baxtisher qizi	
Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili	588
Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li	
Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar	592
K. Q. Tajibayev	
Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике	599
Камолова Феруза Кахрамоновна	



O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	603
Mirzayeva Lola Shavkatovna	
Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni.....	607
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi.....	612
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....	620
Salixov Sherzod Abduxakimovich	
Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish	625
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish	628
Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi	635
Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li	
Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....	640
Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov	
Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста.....	644
Насиров Дилшод Фархадович	
Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана	654
Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович	
Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir.....	659
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li	
Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari.....	664
Razzakov Jasur Xamraboyevich	
Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan	670
Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi	
Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish	677
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari	683
Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li	
Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi.....	689
Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna	
Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari.....	694
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It.....	699
Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara	
Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar.....	705
Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich	
Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari	709
Tuxliyev Iskandar Suyunovich	
Mahalliy soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari	713
Tuychiyev Kamoliddin	
Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari	717
Yadgarov Nodir Ravshanovich	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlar va iqtisodiy asoslari.....	723
Amirqulov Shuxrat Olimovich	
Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari	727
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	



O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari	730
Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li	
Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari	733
M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva	
Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda andarrayting xizmatining o'rni	737
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari	741
Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish	745
Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich	
Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari	749
Xusanov Qaxramon Nishonovich	
Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике	753
Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
Эффективность программ соответствия в различных компаниях	757
Ахмедов Бехзод Ахмедович	
Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте	762
Хасанов Кахрамон Ахмаджанович	
Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles	767
Esanova Shohida Utkirovna	
Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari	774
Madiyarov Sanjar Gulyamovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish	781
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li	



IMKONIYATI CHEKLANGANLARGA TO'SIQSIZ TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
Xalqaro turizm menejmenti kafedrası o'qituvchisi



Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan odamlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini taklif qilish istiqbollari bayon etildi. Sifat parametrlarini aniqlash metodologiyasidan foydalanilgan holda imkoniyati cheklangan shaxslarning sayohat qilishga bo'lgan motivlari o'rganildi. Turizm bozorida imkoniyati cheklanganlar uchun tur marshrutlarni ishlab chiqishga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqildi. Shuningdek maqolada, respublikamizda to'siqsiz turizm xizmatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm industriyasi, to'siqsiz turizm, imkoniyati cheklanganlar, to'siqsiz turizm xizmatlari, tur marshrut, turizm bozori, sayohat motivi.

Abstract: The article describes the prospects of offering accessible tourism services to people with disabilities in the Republic of Uzbekistan. The motives of people with disabilities to travel were studied using the methodology of determining qualitative parameters. Factors affecting the development of tours for people with disabilities in the tourism market were considered. Also, in the article, proposals and recommendations for the further development of barrier-free tourism services in our republic have been developed.

Key words: tourism industry, accessible tourism, disabled people, accessible tourism services, touristic route, tourism market, travel motivation.

Аннотация: В статье описаны перспективы предоставления доступных туристических услуг людям с ограниченными возможностями в Республике Узбекистан. Мотивы людей с ограниченными возможностями к путешествию изучались с использованием методики определения качественных параметров. Рассмотрены факторы, влияющие на развитие туров для людей с ограниченными возможностями на туристическом рынке. Также в статье разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию услуг без барьерного туризма в нашей республике.

Ключевые слова: индустрия туризма, доступный туризм, люди с ограниченными возможностями, доступные туристические услуги, туристический маршрут, туристический рынок, мотивация путешествия.

KIRISH

Hozirgi kunga kelib turizm sohasi iqtisodiyotning ajralmas bo'lagiga aylandi va buni ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar miqyosida ko'rsak bo'ladi. Bu soha mamlakatimizda ham rivojlanib bormoqda. O'zbekistonning barcha mintaqalarida turizm salohiyatini oshirish bo'yicha bir qancha yangi tizim joriy qilinish rejalashtirilmoqda. Jumladan, 2023-yil 29-mart kuni prezident Shavkat Mirziyoyev turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan o'tkazgan videoselektorda har bir viloyatning “tashrif qog'ozi” ishlab chiqilishi, turistik mavsum uzaytirish, 2023-yil mamlakatning turistik salohiyatini jahonga targ'ib qilish yili bo'lib, bunga 100 mlrd so'm ajratiladi va mahalliy, xorijlik sayyohlarni turistik manzilgohlarda qolish kunini uzaytirish va turistik daromadni 300 million dollarga oshirish uchun chora tadbirlar olib borilmoqda ^[1]. Turizm zamonaviy jamiyatlarda barqaror rivojlanish va infratuzilmani yaxshilashning eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. U nomoddiy madaniyatning harakatlantiruvchisi bo'lib xizmat qiladi va milliy merosning madaniy, iqtisodiy jihatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Turizm har bir mamlakat uchun asosiy arteriya hisoblanadi, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyot g'ildiragining asosiy dvigateli sifatida har tomonlama rivojlanishga erishishga hamda uning mamlakatlar iqtisodiyotini yaxshilashdagi asosiy rolga hissa qo'shadi. Shuningdek, u sayyohlarni turistik manzilgohning tub aholisi bilan aralashtirish orqali o'zining madaniy va intellektual rolga ega. Shuning uchun turizm rivojlanib, uning tarmoqlari va vazifalari turli turistik talab va ehtiyojlarini qondirishga diversifikatsiyalangan ^[2]. Bu qiziqish sayyohlar o'rtasidagi individual farqlarga javob beradigan turizmning turli shakllarga olib keldi. Xalqaro turizm bozorida asosiy xizmatlar jismoniy va aqliy jihatdan sog'lom bo'lgan turli yosh va millatdagi sayyohlar uchun ishlab chilmoqda. Shuni



ta'kidlash joizki turizm bozoridagi alohida ajralib turadigan segment imkoniyati cheklangan shaxslarga marketinglar tomonidan qisman e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunga kelib butun dunyoda keksalar va nogironlar soni 30% ga ortib alohida yordam va xizmatlarga muhtojligi oshib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) statistik ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 15 foizi imkoniyati cheklangan shaxslar hisoblanadi. Ayni paytda dunyo bo'ylab 700 milliondan ortiq odam nogiron. 500 milliondan ortiq odam jismoniy, aqliy yoki hissiy muammolarga ega. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, harakatlanish imkoniyati cheklangan turistlar turizm bozorining muhim segmentini egallaydi. Evropada nogironlarning umumiy sonining taxminan 70% jismoniy va moliyaviy jihatdan sayohat qila olmaydi. Jahon turizm bozoridagi chet ellik sayyohlarning 7-8 foizi esa nogironlar deb belgilangan [3]. O'zbekistonda rasman 2022-yilda 845,3 ming kishi yoki umumiy aholining 2,3 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar deb tan olingan. Jahon banki tadqiqotiga ko'ra bu ko'rsatkich uch va undan yuqori yoshdagi jami aholining 13,5 foizi nogironlikning ma'lum bir shakliga, 3,5 foizi esa nogironlikning og'ir shakliga ega deb ko'rsatilgan. Sog'liq va imkoniyatning cheklanishi insonning hayotiga sezilarli ta'sir qiladi, uning tajribasiga, ijtimoiy integratsiyasiga, munosabatlariga va hatto qadriyatlar ko'lamiga salbiy ta'sir qiladi. Imkoniyati cheklangan shaxslar o'zlarining cheklovlariga qaramay, to'liq, sifatli va to'siqsiz hayot kechirishni xohlashadi. Mustaqil hayot g'oyasi ba'zilar uchun yaqinlari tomonidan g'amxo'rlik qilish yoki ixtisoslashtirilgan xizmatlar va muassasalar bilan bog'liq. Boshqa guruhlari esa ancha shuhratparast. Ular oila, sifatli ta'lim, yaxshi ish, uy-joyga ega bo'lishni va sayohat qilishni istaydi, dunyo va boshqa madaniyatlar bilan tanishishni, shu tariqa o'z hayotlarini to'laqonli yashashga intilishadi. Ko'pgina tadqiqotlarda nogironligi bo'lgan shaxslar turli sohalarida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishi ta'kidlab o'tilgan turizm industriyasi ham shular qatorida [4]. Bugungi kunda turizm bozorida imkoniyati cheklangan shaxslarning sayohat qilishga bo'lgan motivlari oshganligi sababli, turizm bozorida o'ziga xos muammolarni va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Buning asosiy sababi sifatida imkoniyati cheklangan shaxslarga alohida e'tibor va xizmatlar ishlab chiqishning yetishmovchiligi deb qaralmoqda. Turizm bozorida imkoniyati cheklanganlar segmentining mavjudligi turizmga infratuzilma va to'siqsiz turizm xizmatlarini rivojlantirish uchun yana bir asosdir. Bu segmentatsiya turizmning boshqa ishtirokchilari singari nafaqat turizm kapital ishlab chiqaradi, balki mintaqalarda turizmni yanada barqaror rivojlantirishga yordam beradi. Maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan odamlarga to'siqsiz turizm xizmatlarini taklif qilish istiqbollari o'rganish va yoritishdan iborat [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI

To'siqsiz turizmning umume'tirof etilgan bir nechta ta'riflari mavjud. Xorij tadqiqotlariga ko'ra ko'pincha sayohat paytida alohida ehtiyojga ega bo'lgan shaxslarning muammolariga e'tibor qaratilgan turizm turi hisoblanadi. Bazi manbalarda esa to'siqsiz turizm imkoniyati cheklanganlarning "maxsus ehtiyojlari" atamasi bilan bog'liq bo'lib – ularning turistik faoliyatdan to'liq foydalanishi uchun tashkil etilgan (maxsus xizmatlar) deb yoritilgan va bunaqa xizmatlarni ishlab chiqish uchun imkoniyati cheklangan shaxslarning uchta toifasi tahlil qilinadi. Bular:

1. Jismoniy g'amxo'rlikka ehtiyoji bor toifa.
2. Harakatlanishda maxsus asboblardan va yaqin atrofda muolajalarni amalga oshirish imkoniyatidan foydalanishga ehtiyoji bor toifa.
3. Turistik obyektlar va transportlardan to'siqsiz foydalanishga ehtiyoji bor toifa.

Bu toifalarni o'rganish orqali imkoniyati cheklangan shaxslar - nogironlar, shu jumladan keksalar, boquvchisini yoqotganlar yoki kichik bolali oilalar turistik faoliyat va xizmatlardan to'siqsiz foydalanishini osonlashtirishga imkoniyat yaratadigan turizm turi te'biy qaraladi [6]. To'siqsiz turizm "atrof-muhit, infratuzilmalarning sifati (transportlar, liftlar, maxsus yo'lakcha va zinapoyalar, restoranlar, galereyalar, muzeylar, ko'ngilochar bog'lar, madaniy meros obyektlari) va tashrif buyuradigan joyning to'siqsizligi sayohat qilish va harakatlanishda standart qilib belgilangan ma'lumotlar, turistik obyektlarda imkoniyati cheklangan shaxslar harakatlanishi uchun to'siqlar yo'qligi" tushunladi. Bundan tashqari, qulaylikning yana bir komponenti uning iqtisodiy jihati, ya'ni to'siqsiz turizm xizmatlarining arzonligi deb qaraladi sababi imkoniyati cheklanganlarning iqtisodiy kelib chiqish jihatini olganda boshqa sayyohlarga qaraganda pastroq hisoblanadi [7].

Turk tadqiqotchisi Zeki Akinci fikriga ko'ra barcha turistlarning sayohatlarda har tomonlama ishtirok etishida turgan to'siqlarni bartaraf etish, turizm industriyasining barcha qatlamlaridan foydalanishni ta'minlash muhim ko'rsatkichdir. Turistik faoliyatni imkoniyati cheklangan shaxslarga tashkil etish jamiyatga integratsiyalash orqali samarali shakllanadi. Inklyuziv (hamma narsani qamrab oluvchi to'siqsiz turizm) tushunchasi imkoniyati cheklanganlar turizmi o'rni qo'llanilib kelayotgan atama hisoblanadi. To'siqsiz turizm tushunchasi haqida yagona va universal ta'rif yo'qligini ta'kidlagan. Ushbu konsepsiyaning mazmuni, albatta, jarayonda dunyoda qo'llanilayotgan tatbiqlar va tadqiqotlarga mos ravishda ishlab chiqilgan. To'siqsiz turizm tushunchasi "Universal turizm", "Nogironlar turizmi", "Inklyuziv turizm" va "Hamma narsa va turizm" kabi turli termologiyalar bilan ishlatiladi. Harakatlanish, eshitish, ko'rish, kognitiv yoki aqliy, psixo-ijtimoiy jihatdan imkoniyati cheklangan, shu



jumladan keksalar va vaqtinchalik nogironligi bo'lgan odamlarga sayyohlik va sayohat xizmatlarini o'z ichiga olgan turizmning bir turi deb ko'rsatgan ^[8].

Rus tadqiqotchisi Anikeeva Olga Aleksandrovna esa to'siqsiz turizm (Accessible tourism) yoki, hamma uchun turizm (tourism for all), yani turizm bozorining eng jadal rivojlanayotgan segmentlaridan biridir. Rus tilida to'siqsiz turizm haqida ma'lumot amalda yo'qligini ta'kidlagan. Rossiyada turizm bozorining ushbu segmenti "nogironlar uchun turizm" deb nomlanadi, xorijda esa "hamma uchun turizm", "bajarilishi mumkin bo'lgan turizm", "inklyuziv turizm", "to'siqsiz turizm" va "paraturizm" atamalaridan foydalanadilar. ". Terminlarning ma'nosi nogironlar uchun turizm nima ekanligini aniqlash 20 yildan ortiq vaqt davomida ilmiy munozaralar mavzusi bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, "hamma uchun ochiq turizm" atamasi xalqaro me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan deb yozgan. Adabiyotlar tahliliga ko'ra bazi mamalakatlarida to'siqsiz turizm atamasi yangi termologiya deb qaralsa boshqalarida keng tarqalgan deb ifodalangan. Shuni ta'kidlash joyizki, so'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, turizm bozorida to'siqsiz turizm doimiy ravishda o'sib bormoqda, uning salohiyatini e'tiborsiz qoldirish samarali biznes imkoniyatlarini e'tiborsiz qoldirish ekanligini ko'rsatmoqda. To'siqsiz turizm xizmatlarini mamlakatimizda samarali tashkil etish qo'shni mamlakatlarga qaraganda raqobatdosh ustunlikka ega bo'lishga yo'l ochib beradi ^[9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umimiy yigirma nafar ishtirokchidan iborat intervyu olindi va sifatli parametrlari metodologiyasidan foydalanib natijalar tahlil qilindi ^[10]. Ushbu tadqiqot ochiq savollar bilan tuzilgan intervyu shaklida amalga oshirildi. Buning amaliy asosi imkoniyati cheklangan shaxslar savollariga yozma javob berishdan ko'ra og'zaki javob berish samarasi yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga suhbat natijalari kodlashtirildi, transkripsiya qilindi va shu jarayon asosida maqolada ko'rsatilgan to'siqsiz turizm xizmatlarini istiqbolli tashkil etishga oid xulosalar qilingan va to'siqsiz turizm sohasini takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'siqsiz turizm mobil, vizual, eshitish va aqliy foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi, bu esa universal tarzda ishlab chiqilgan to'siqsiz turizm mahsulotlari, xizmatlari va muhitlardan foydalanuvchilarni mustaqil, teng va munosib sayohat qilish huquqiga egalik qilishga imkoniyat yaratadi. Sayohat hamma uchun to'siqsiz bo'lishi kerakligiga urg'u beriladi, chunki dam olish va bo'sh vaqtni imkoniyati cheklangan yoki nogironlik holatidan qat'i nazar maroqli o'tkazish har bir insonning inson huquqlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiyotda to'siqsiz turizm bozori o'sib borayotgan bozor segmenti bo'lib, u kamida ikkita afzalliklarga ega: u ijtimoiy inklyuzivlikka olib keladi va turistik yo'nalishlarning raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek, turizm sektoriga yaxshi moliyaviy natijalar beradi. Shu bilan birga, butun dunyo bo'ylab mintaqalar va mamlakatlarga to'siqsiz sayohat qilish imkoniyatini targ'ib qiladi. Intervyu natijalariga ko'ra imkoniyati cheklanganlarning sayohat qilish motivlari o'rganilganda ularning ko'pchiligi sarguzashtga boy joylarga borish, ba'zan yolg'iz ammo yo'riqnoma asosida sayohat qilish, ularning muhtojliklariga qarab to'siqsiz turizm xizmatlaridan foydalanishni. To'siqlarsiz yangi turistik manzilgohlarda yoki go'zal eko panoramali joyda dam olish motivlari borligi aniqlandi. Qolgan qismi esa ish safari va kongress turizmida qatnashish istagi borligini ta'kidlashdi. Sayohat qilish uchun qanday sabablarga ega bo'lishidan qat'i nazar, bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazish muhimligini bildirishdi. Maqola natijasidan ko'rinib turibdiki imkoniyati cheklanganlar ham jismonan sog'lom odamlardek motivlari va sayohat qilishga ehtiyoji borligi aniqlandi. Intervyu natijalari aniqlangan kamchiliklar tahlili esa imkoniyati cheklangan shaxslar turizmi (to'siqsiz turizm) uning xizmatlarini ishlab chiqishga to'sqinlik qiluvchi bir qancha to'siq va qiyinchiliklar ko'rib chiqildi. Bularga misol qilib maxsus turmarshrutlar, mehmonxona nomerlari, transportlar va ovqatlantirish vasitalari aniqlandi. Shu bois, turizm sohasi bilan shug'ullanuvchi mutasaddi tashkilotlarga yanada ko'proq sa'y-harakatlari, nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini qondirish uchun, ushbu sohaning rivojlanishini cheklab qo'yayotgan muammolarni bartaraf etish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Buning sababi, to'siqsiz turizm konsepsiyasi turizm sohasida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi, imkoniyati cheklanganlar uchun jozi-bador bo'lishi va takomillashtirish konsepsiyasi istiqbollari ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot imkoniyati cheklangan shaxslar uchun to'siqsiz turizm xizmatlarini tashik etish yo'lidagi to'siqlarni o'rganib chiqdi. Shuningdek, tadqiqot namunasi javoblarida imkoniyati cheklanganlar toifasi, sayohat motivlari va turistik infratuzilmaga asoslangan nomutanosiblikni ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, imkoniyati cheklanganlarning to'siqsiz turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlari yuqori. Yuqoridagi turizm bozorida to'siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etish bo'yicha kelib chiqqan muammolarni tahlil qilgan holda to'siqsiz turizm sohasini mamlakatimizda yanada rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:



1. Turistik obyektlar va muzeylarda imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus “yashil” yo‘lakchalar va harakatlanishga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish uchun belgilar yetarlicha emas. Bularni tashkil qilish orqali imkoniyati cheklanganlarni mamalakatimizga tashrif buyurishga, jalb qilishga imkoniyat yaratadi.
2. Turniketlarda - jamoat hojatxonalarida, chipta olish joylarida, ovqatlantirish vositalarida to‘siqsiz kirish yoki smart kirish eshiklari yetarlicha o‘rnatilmagan. Xorij texnologiyasidan foydalanib kirish va chiqish harakatlarini to‘siqsizlashtirish mamlakatimizda to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etishda samarali foyda beradi.
3. Mehmonxona nomerlarida o‘rnatilgan jihozlarning juda past yoki baland o‘rnatilganligi, jamoat transportlarida imkoniyati cheklanganlar uchun kam sonli o‘rindiqlar o‘rnatilganligi ularga harakatlanish uchun kichik qiyinchilik va to‘siqlar keltirib chiqarmoqda. Bularni tog‘ri joylashtirish yoki transport o‘rindiqlarini sonini ko‘paytirishga tavsiya beriladi.
4. Ko‘p qavatli bino va xarid zonalarida imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus liftlarning o‘rnatilmaganligi va jamoat joylarida maxsus elektr aravachalar yo‘qligi to‘siqsiz turizm xizmatlarini tashkil etishda asosiy resurslardan biri bo‘lib xizmat qiladigan uskunalar muammosi sifatida qaralishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cockburn-Wootten, Cheryl, and Alison McIntosh. 2020. Improving the Accessibility of Tourism Industry in New Zealand. Sustainability 12: 10478
2. Gillovic, Brielle, and Alison McIntosh. 2020. Accessibility and Inclusive Tourism Development: Current State and Future Agenda. Sustainability 12: 9722
3. Seonyoung Kim & Emmanuel Akwasi Adu-Ampong (11 Jan 2024): Disabilities, functionings and capabilities: the capability approach in accessible tourism, Current Issues in Tourism, DOI: 10.1080/13683500.2023.2300989
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/06/01/persons-with-disabilities>
5. Lise Wagner. Disabled People in the World in 2021: Facts and Figures. 28 May, 2021. URL: www.inclusivecity-maker.com/disabledpeople-in-the-world-in-2021-facts-and-figures
6. “Uzbekistan aims at a breakthrough in tourism development in 2019.” Travel Wire News. <https://travelwirenews.com/uzbekistan-aims-at-a-breakthrough-in-tourism-development-in-2019-1266618>
7. Mustafa, Z., & Khayyat, H. (2020). Tourism for people with disabilities: requirements for travel, accommodation and tourist guidance. Baghdad: Dar Al-Sadiq Cultural Foundation
8. Rustamovich, Dehkonov Burhan. “QUALITY AND SAFETY OF PUBLIC CATERING SERVICES IN UZBEKISTAN.” European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)(2021/5/23): 19-23
9. Šintáková, O., & Lasisi, T. T. (2021). Travel Motivation and Barriers to Travel for People with Visual Impairments. Czech Journal of Tourism, 9(1), 54-67. DOI: 10.2478/cjot-2020-0004
10. Россия без барьеров: туризм, доступный для всех, Анисеева Ольга Александровна.
11. Popović, Damir; Slivar, Iva; Gonan Božac, Marli (2022) : Accessible tourism and formal planning: Current state of Istria County in Croatia, Administrative Sciences, ISSN 2076-3387, MDPI, Basel, Vol. 12, Iss. 4, pp. 1-20, <https://doi.org/10.3390/admsci12040181>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.